



**INNOVA
TA'LIM T.**

Muallif: Berdiyori
Affiliyatsiya: Xalq
o'qituvchisi, Xalq
DOI: <https://doi.org/10.26907/2541-7741.2023.01.01>



Har bir muallif
sahifasida maxsus
QR kod mavjud.
Ushbu QR kodni
skaner qilib, muallif
sahifasiga o'ting!

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagog talabalarida ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Ijodiy kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda kasbiy faoliyatdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, loyiha asosida ta'lim, STEAM-integratsiya, muammoli o'qitish, raqamli texnologiyalar va interfaol metodlarning talabalarida kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik jarayonda yangicha fikrlash, muammolarni noodatiy yecha olish hamda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar innovatsion texnologiyalarni joriy etishni, shuningdek, bo'lajak pedagoglarda ijodiy kompetensiyani shakllantirishni talab etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari jamiyatning eng muhim bo'g'ini bo'lib, ularning kasbiy tayyorgarligi kelajak avlodning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, ijodiy kompetensiya, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi-pedagog, STEAM-ta'lim, loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar, kreativ tafakkur.

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan texnologiyalar, globallashuv va innovatsiyalar ta'sirida tubdan yangilanmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi esa ushbu jarayonning eng muhim bo'g'ini sifatida, jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni nafaqat nazariy bilimlar, balki ijodiy kompetensiyalar asosida tayyorlash zamon talabi bo'lib qolmoqda.¹

Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, noodatiy g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini anglatadi. Mazkur ko'nikmalar bo'lajak tarbiyachilarda bolalarning qiziqishi va tabiiy ijodiy salohiyatini rivojlantirishga imkon beradi. Zamonaviy pedagog nafaqat an'anaviy metodlarni bilishi, balki ularni raqamli texnologiyalar, interfaol usullar hamda ilmiy yangiliklar bilan uyg'unlashtira olishi kerak.²

¹ Mirziyoyev, Sh. M. (2019). *Yosh avlod tarbiyasi va maktabgacha ta'limning ustuvor vazifalari haqida nutq*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). *Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi* (PQ-4312-son qaror). Toshkent: Lex.uz.

94ASR2546VIP60-07

Berdiyeva Nilufar Berdiyev qizi¹DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17383833>

Google scholar:

MAQOLANI YUKLAB OLISH

SERTIFIKATNI YUKLAB OLISH

Muallif maqolasini va
sertifikatini quyidagi
tugma orqali yuklab
olishingiz mumkin!

